


Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
(2020-yil yanvar-dekabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 65 116,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 109,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (84,6 %) ni tashkil etdi.



B-Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C-Ishlab chiqaradigan sanoat D-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 4,5 barobarga va elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 13,6 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 12,5 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 1,7 % ga o'sishiga xizmat qildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining
jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da**




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 132,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,4 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi



Ishlab chiqaradigan sanoat




2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55 084,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,6 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2019-yilning yanvar-dekabr oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 4,7 % (6,6 %), o'rta-quyi texnologiyali - 88,1 % (83,9 %) va quyi texnologiyali - 6,8 % (9,2 %) ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



Quyi texnologiyali




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,7 % (2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 118,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 80,4 % (2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 108,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,4 % (2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 95,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,1 % (2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 104,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,3 % (2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 135,1 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 45,6 ming m³ argon (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 45,0 % ga o'sgan), 8,0 ming tonna kalsiy xlorid (67,5 %), 66,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (18,2 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da







Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, ming tonna.	3 636,0	3 615,5	99,4
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, tonna.	56 430,0	54 986,0	97,4
Ammoniy nitrat, ming tonna azot.	235,7	163,2	69,3
Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming tonna.	21,5	84,0	391,2
Kislorod, ming m ³ .	152,2	201,5	132,4
Temir beton, tonna.	45 121,0	23 496,0	52,1
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	561,3	443,5	79,0
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna.	1 181,6	936,1	79,2

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kislorod 132,4 % ga hamda kaustik soda mahsulotining 3,9 bar. ga o'sishi qayd etildi.



Shuningdek, temir beton mahsuloti (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan - 52,1 %) pasayishi kuzatildi.

Metallurgiya sanoati
(2020- yil yanvar-dekabr)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoatining ulushi 77,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 97,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 80,4 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 8,2 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 44 285,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish
(2020- yil yanvar-dekabr)



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 103,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 18,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 2 602,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020- yil yanvar-dekabr)

2019- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 9,9 % ga oshgan.

Shuningdek, 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni, fizik hajm indeksi 109,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 128,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati**
(2020- yil yanvar-dekabr)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 20,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 700,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 641,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,6 % ni) tashkil etdi.


2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 13,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	9 747,4	11 737,8	1 990,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3 886,3	3 677,4	-208,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 258,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	30 689,9	58 078,6	27 388,7
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	22,0	12,7	- 9,3
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	33 200,0	50 139,0	16 939,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 89,2 % ga hamda boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 51,0 % ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek, xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar – 42,2 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 866,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 5,9 % ni tashkil etdi.













Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino-aroq mahsulotlari va pivo 0,4 % (2019- yil yanvar-dekabr oylarida 0,02 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 29,8 % ni, shuningdek, Karmana tumani 17,8 % ni, Xatirchi tumani 14,2 % ni, Qiziltepa tumani 12,4 % ni hamda Navbahor tumani 7,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (104,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida (107,5 %) hamda Qiziltepa tumanida (106,9 %) qayd etildi.











**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)**

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>
	1 151,8	29,8	104,5		268,1	7,0	104,8
Navoiy sh.				Navbahor t.			
	244,9	6,3	101,7		235,8	6,1	104,6
Zarafshon sh.				Nurota t.			
	686,6	17,8	105,6		39,2	1,0	107,5
Karmana t.				Tomdi t.			
	90,7	2,3	106,6		120,5	3,1	102,7
Konimex t.				Uchquduq t.			
	479,0	12,4	106,9		549,7	14,2	101,7
Qiziltepa t.				Xatirchi t.			

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 35,4 % shuningdek, Karmana tumani 21,3 % ni, Xatirchi tumani 11,5 % ni, Qiziltepa tumani 8,3 % ni hamda Nurota tumani 7,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (103,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Konimex tumanida (114,8 %) qayd etildi.











**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish
hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)**

	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>
	811,4	35,4	102,2		133,6	5,8	110,8
	Navoiy sh.				Navbahor t.		
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>
	112,6	4,9	97,9		173,1	7,6	105,2
	Zarafshon sh.				Nurota t.		
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>
	488,6	21,3	105,1		20,1	0,9	114,3
	Karmana t.				Tomdi t.		
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>
	44,2	1,9	114,8		54,8	2,4	104,3
	Konimex t.				Uchquduq t.		
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>
	190,8	8,3	96,6		264,4	11,5	101,3
	Qiziltepa t.				Xatirchi t.		

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 21,6 % shuningdek, Qiziltepa tumani 18,3 % ni, Xatirchi tumani 18,1 % ni, Karmana tumani 12,6 % ni hamda Navbahor tumani 8,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Qiziltepa tumanida (115,0 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish
hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)**












	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>
	340,4	21,6	110,4		134,5	8,6	99,4
Navoiy sh.				Navbahor t.			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>
	132,3	8,4	105,3		62,7	4,0	102,9
Zarafshon sh.				Nurota t.			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>
	198,0	12,6	106,7		19,1	1,2	101,1
Karmana t.				Tomdi t.			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>
	46,5	3,0	99,8		65,7	4,2	101,5
Konimex t.				Uchquduq t.			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sishi, % da</i>
	288,2	18,3	115,0		285,3	18,1	102,2
Qiziltepa t.				Xatirchi t.			

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat
mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 324,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 2,0 % ni tashkil etdi.

**Navoiy viloyatining shahar va tumanlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari
(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)**

	Mlrd. so'm			Ulush, % da			O'sishi, % da		
	Mlrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da	Mlrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da	Mlrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	65 116,7			100,0			109,4		
Navoiy viloyati									
	55 006,5	84,5	110,1		521,0	0,8	104,0		
Navoiy sh.				Navbahor t.					
	315,7	0,5	114,7		289,2	0,4	104,4		
Zarafshon sh.				Nurota t.					
	6 958,5	10,7	120,7		44,4	0,1	112,8		
Karmana t.				Tomdi t.					
	129,5	0,2	114,7		147,0	0,2	105,3		
Konimex t.				Uchquduq t.					
	1 136,0	1,7	104,3		568,9	0,9	105,0		
Qiziltepa t.				Xatirchi t.					

Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, % da

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining viloyat ko'rsatkichidan yuqori, Karmana tumaniga (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 120,7 %) hamda Zarafshon shahriga (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 114,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Tomdi tumanida (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,5 %), Qiziltepa tumanida (106,9 %), Konimex tumanida (106,6 %) hamda Karmana tumanida (105,6 %) sezilarli darajada oshdi.

**Navoiy viloyaninig jami sanoat mahsulotlari hajmida
shahar va tumanlarning ulushi, % da**

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Navoiy shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 84,5 %) hamda Karmana (10,7 %), Qiziltepa (1,7 %), Xatirchi (0,9 %), Navbahor (0,8 %) tumanlariga hamda Zarafshon (0,5 %) shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Tomdi (0,1 %), Uchquduq (0,2 %), Konimex (0,2 %), Nurota (0,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (377 885,4 ming so'm), Karmana (54 833,5 ming so'm), Qiziltepa (7 433,7 ming so'm) va Navbahor (4 580,0 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi Navoiy shahrida - 7 912,9 ming so'mni, Karmana tumani - 5 410,7 ming so'mni, Uchquduq tumani - 3 215,7 ming so'mni, Qiziltepa tumani - 3 134,8 ming so'mni, Zarafshon shahrida - 2 898,9 ming so'mni va Xatirchi tumani - 2 742,5 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, ming so'm

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>		<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		
	64 763,3		3 845,3		
Navoiy viloyati					
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	377 885,4	7 912,9		4 580,0	2 357,3
	Navoiy sh.		Navbahor t.		
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	3 736,8	2 898,9		3 100,6	2 528,3
	Zarafshon sh		Nurota t.		
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	54 833,5	5 410,7		2 977,4	2 627,2
	Karmana t.		Tomdi t.		
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	3 609,3	2 527,0		3 924,9	3 215,7
	Konimex t.		Uchquduq t.		
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	7 433,7	3 134,8		2 838,6	2 742,5
	Qiziltepa t.		Xatirchi t.		

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 298,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,6 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Konimex (100,0 %), Nurota (99,4 %), Xatirchi (99,1 %), Zarafshon shahrida (90,5 %) hamda Navbahor tumanlarida (58,1 %) ni tashkil etdi.


Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Navoiy shahrida (1,7 %), Karmana (16,2 %), Qiziltepa (43,6 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda
(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatimizda 3 273 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 730 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,3 %) Navoiy shahriga, 540 tasi (16,5 %) Karmana tumaniga, 417 tasi (12,7 %) Xatirchi tumaniga hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda
(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)





2020- yil yanvar-dekabr oyida viloyatimizda 885 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 183 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 20,7 %) Xatirchi tumanida, 126 tasi (14,2 %) Uchquduq tumanida, 118 tasi (13,3 %) Karmana tumanida, 115 tasi (13,0 %) Navoiy shahrida, 100 tasi (11,3 %) Zarafshon shahrida hamda 96 tasi (10,8 %) Qiziltepa tumanida tashkil etildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 150 ta loyiha bo'yicha 1 296,5 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 12,7 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 297 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 33,0 bar. ga oshgan.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr
Loyihalar soni, <i>birlikda</i>	110	150
Korxonalar soni, <i>birlikda</i>	14	31
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	726,4	1 296,5
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh dollari</i>	0,8	12,7
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlikda</i>	9	297

Navoiy viloyati statistika boshqarmasining
sanoat statistikasi bo'limi
Tel.: (79) 223-33-29